

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARI ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Suv tejoychi texnologiyalari asoslari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Suv tejoychi texnologiyalari asoslari

1. Tomchilatib sug'orishni joriy etish istiqbollari va suv tejoychi texnologiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi
2. Ekinlarni suv tejoychi bosimli sug'orish texnologiyalari
3. Ekinlarni egatlab sug'orishning tejamkor usullari va innovatsion sug'orish texnologiyalari

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Tomchilatib sug'orishni joriy etish istiqbollari va suv tejovchi texnologiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi	Tomchilatib sug'orishning tarixi va kelajak istiqbollari, tomchilatib sug'orish tizimining asosiy qismlari va tomizgich turlari, ularning texnik-parametrik xususiyatlari, suv va o'g'itni ildiz zonasiga aniq yetkazish tamoyillari, agrotexnologik jarayonlarni qo'llash, xo'jalik va iqtisodiy mezonlar asosida tizimni tanlash hamda O'zbekistonda tomchilatib sug'orishni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni bilish, farqlash va hayotiy-amaliy vaziyatlarda tahlil qilish. Suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini qo'llashni davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlari: soliq to'lovlaridan ozod qilish, texnologiyalarni joriy etish uchun kreditlar ajratish, xarajatlarni qoplash uchun subsidiyalar berish, bank kreditlarining foiz xarajatlarini qisman qoplash, subsidiyalar ajratish va nazorat qilish tartibini bilish, farqlash va amaliy holatlarda tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	15 %	6 ta
2	Ekinlarni suv tejovchi bosimli sug'orish texnologiyalari	Tomchilatib sug'orish tizimining asosiy qismlari, tomizgich va sug'orish shlanglari turlari hamda ularning texnik parametrlarini, tizim quvurlarining joylashuvi va ulanish elementlarini, tomchilatib sug'orish tizimini loyihalash tartibi (suv sarfi va bosimini hisoblash, quvurlar diametrini tanlash), tizimni ishga tushirish, texnik xizmat ko'rsatish (filtr va quvurlarni yuvish, yig'ish va qayta ulash) hamda tomchilatib sug'orishda sug'orish suvining mahsuldorligini bilish, farqlash va hayotiy-amaliy vaziyatlarda tahlil qiladi. Yomg'irlatib sug'orish tizimining tuzilishi va ishlash tamoyillarini, ko'chma va turg'un (statsionar) yomg'irlatib sug'orish tizimlari hamda ularning uskunalari, asosiy elementlarining ish unumdorligi va texnik tasniflarini, suv sarfini belgilash va tizimni loyihalash (gidravlik hisoblar, xarajatlarni hisoblash, qurish va ekspluatatsiya qilish) jarayonlarini bilish, farqlash va hayotiy-amaliy	50 %	20 ta

		vaziyatlarda tahlil qilish ko'nikmalarga ega bo'ladi.		
3	Ekinlarni egatlab sug'orishning tejamkor usullari va innovatsion sug'orish texnologiyalari	Dalalarni ekishga tayyorlash, sug'orish tarmoqlarini mavsumga tayyorlash, egatlab sug'orishda suv berishni boshqarish - jumladan, o'ralatib sug'orish, qisqa egatlardan foydalanish, o'zgaruvchan oqim bilan sug'orish, egatga ikki tomondan suv berish va pog'onama-pog'ona sug'orish kabi usullar orqali suvni tejash tamoyillarini bilish, farqlash va amaliy vaziyatlarda tahlil qiladi. Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda yangi texnologiyali yig'iluvchan ko'chma sug'orish novlari (KSN-50 TE), ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida suvdan ratsional foydalanish texnologiyalari va ularni qo'llash sxemalari, gidroponika usulida ekin yetishtirishning turlari, afzallik va kamchiliklari, pulsar sug'orish texnologiyasi hamda egatlab sug'orishda qo'shimcha vositalardan foydalanish orqali suvni tejash tamoyillarini bilish, farqlash va amaliy vaziyatlarda tahlil qilish ko'nikmalarga ega bo'ladi.	35 %	14 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	15%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	70%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	15%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test

3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Mamatov S. A., Zaks I. A., Burxonjonov B. Sh.. Suv tejoychi sug'orish texnologiyalari (o'quv qo'llanma). Toshkent, 2022.

2. Mamatov S. A., Burxonjonov B. Sh., Shoyqulov B. B., Sarimsaqov M. M. Suv tejoychi sug'orish texnologiyalari fanidan o'qitish materiallar to'plami. Toshkent, .

3. Mamatov S. A., Burxonjonov B. Sh., Shoyqulov B. B., Sarimsaqov M. M. Suv tejoychi sug'orish texnologiyalari asoslari fanidan o'qitish materiallar to'plami. Toshkent, 2022.

4. Namozov Sh., Komilov B. S., Ziyotov M. P., Boboev Sh., Esanov A. Sh., va boshq. G'o'zani diskret (pulsar) sug'orish texnologiyasi: tavsiyanoma. Toshkent, 2025.

5. Amanov B.T., Sherov A.G., Resurs tejankor innovatsion sug'orish texnologiyalari. –T.: “Darslik”, 2021.